GO'DAKLAR O'LIMINING HUDUDIY NOTEKISLIGI VA ASOSIY SABABLARI: FARG'ONA VILOYATIDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Shermatov Rasuljon Mamasiddiqovich
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Azamov Elbek Toxirjon o'g'li
Farg'ona viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23139150

Annotatsiya. Farg'ona viloyatida 2025 va 2026 yillarning yanvar–iyun oylarida qayd etilgan 628 ta go'dak o'limi retrospektiv tahlil qilindi. Go'daklar o'limi 6,9‰ dan 7,5‰ ga oshdi, lekin bu o'sish statistik jihatdan ishonchli emas (RR 1,09; 95% IO 0,93–1,27; p=0,30). O'limlarning 69–71 foizi perinatal holatlar va tug'ma nuqsonlarga to'g'ri keldi. Tumanlar o'rtasidagi farq ishonchli bo'ldi (3,6–12,8‰; p=0,024). Oltiariq, Toshloq va So'x tumanlarida har bir go'dak o'limi bo'yicha chuqurlashtirilgan audit tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: go'daklar o'limi; neonatal o'lim; o'lim sabablari; hududiy tafovut; Farg'ona viloyati.

Dolzarbligi. Go'daklar o'limi aholi salomatligi va perinatal yordam sifatining asosiy ko'rsatkichidir. 2024 yilda dunyoda besh yoshga yetmay vafot etgan 4,9 million bolaning 47 foizi hayotining birinchi 28 kunida nobud bo'lgan [4]. Global tahlillarda muddatidan oldin tug'ilish asoratlari va tug'ma nuqsonlar o'lim sabablari orasida yetakchi o'rinda turadi [3].

Rossiyada go'dak o'limlarining 72,1 foizi perinatal holatlar va tug'ma anomaliyalarga to'g'ri keladi [1]. Perinatal holatlar tufayli o'lim darajasi o'n yilda ikki baravar kamaygan, ammo ularning ulushi 56 foizdan atigi 51 foizgacha tushgan [2]. O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish 2022–2026 yillar uchun davlat ustuvorligi sifatida belgilangan [5]. Toshkent viloyatida sud-tibbiy ekspertiza materiallarida go'dak o'limlarining 60,9 foizi neonatal davrga to'g'ri kelgan [6]. Farg'ona viloyati bo'yicha shunday tahlil chop etilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Farg'ona viloyatida 2025 va 2026 yillarning yanvar–iyun oylarida go'daklar o'limi darajasi, sabablari tuzilishi va hududiy farqlarini statistik baholash.

Material va usullar. Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining rasmiy hisobot ma'lumotlari retrospektiv tahlil qilindi. Ikki davrda bir yoshgacha bo'lgan 628 nafar bolaning o'limi qayd etilgan: 2025 yilda 305, 2026 yilda 323. Tirik tug'ilishlar soni intensiv ko'rsatkichlardan qayta hisoblandi (taxminan 44,2 ming va 43,1 ming).

Davrlar nisbiy xavf (RR) va 95% ishonch oralig'i (IO) bilan, ulushlar Pirson χ^2 mezoni bilan taqqoslandi. 19 shahar va tuman o'rtasidagi bir xillik Puasson dispersiya testi va Spirmen korrelyatsiyasi bilan baholandi. Ko'p taqqoslashlar uchun Benjamini–Xoxberg tuzatmasi (q) qo'llandi. Statistik ahamiyatlilik chegarasi $p<0,05$.

Natijalar va muhokama. Go'daklar o'limi 1000 tirik tug'ilishga 6,9 dan 7,5 ga oshdi (RR 1,09; 95% IO 0,93–1,27; p=0,30). Bu o'sish statistik jihatdan ishonchli emas.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Neonatal davrdagi o‘limlar ulushi 57,7% va 58,8% bo‘ldi (χ^2=0,08; p=0,78). Neonataldan keyingi o‘limlar 129 dan 133 ga o‘zgardi (RR 1,06; 95% IO 0,83–1,35).

Sabablar tuzilishi davrlar o‘rtasida ishonchli farq qilmadi (χ^2=8,80; df=5; p=0,12). Perinatal davr kasalliklari (40,7% va 39,6%) va tug‘ma nuqsonlar (28,2% va 31,3%) birgalikda o‘limlarning 69–71 foizini tashkil etdi. Tug‘ma nuqsonlardan o‘lim 10 000 tug‘ilishga 19,5 dan 23,5 ga ko‘tarildi (RR 1,21; 0,90–1,61; p=0,21).

Nafas tizimi kasalliklari ulushi 13,1% dan 7,7% ga kamaydi (p=0,027), lekin tuzatmadan keyin bu farq ishonchliligini yo‘qotdi (q=0,16). “Boshqa kasalliklar” guruhi 22 dan 37 ga oshdi (RR 1,73; 1,02–2,93; p=0,05); bu o‘lim sabablarini kodlash sifatini tekshirishni talab qiladi. Uyda sodir bo‘lgan o‘limlar ulushi 7,2% va 6,2% bo‘ldi (p=0,61).

Hududiy farqlar kuchaydi. 2026 yilda ko‘rsatkich 3,6‰ (Qo‘qon shahri) dan 12,8‰ (Oltiariq tumani) gacha o‘zgardi, variatsiya koeffitsienti 30,5% ga teng bo‘ldi (χ^2=31,7; df=18; p=0,024; 2025 yilda p=0,053). Tumanlarning ikki yildagi o‘rni bir-biri bilan kuchsiz bog‘langan (ρ=0,39; p=0,10).

Oltiariq tumanida o‘lim 16 dan 31 ga oshdi (RR 2,00; 1,09–3,66; p=0,028), biroq 19 ta taqqoslash hisobga olinganda farq ishonchli emas (q=0,53). Kichik hududlarda bir necha holat ko‘rsatkichni keskin o‘zgartiradi, shuning uchun yarim yillik raqamlar asosidagi reyting chalg‘itishi mumkin.

Xulosalar.

1. 2026 yilning birinchi yarmida go‘daklar o‘limi 7,5‰ ni tashkil etdi; 2025 yilga nisbatan o‘sish tasodifiy tebranish chegarasida.
2. O‘limlarning qariyb 70 foizi perinatal holatlar va tug‘ma nuqsonlarga to‘g‘ri keladi. Asosiy zaxira antenatal skrining va perinatal yordam sifatida.
3. Tumanlar o‘rtasidagi notekislik statistik jihatdan ishonchli. Oltiariq, Toshloq va So‘x tumanlarida har bir go‘dak o‘limi bo‘yicha chuqurlashtirilgan audit o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Баранов А.А., Альбицкий В.Ю., Намазова-Баранова Л.С. Смертность детского населения в России: состояние, проблемы и задачи профилактики // Вопросы современной педиатрии. – 2020. – Т. 19, № 2. – С. 96–106. – DOI: 10.15690/vsp.v19i2.2102.
2. Макаренцева А.О. Достижения перинатальной реформы и резервы дальнейшего сокращения младенческой смертности в России // Демографическое обозрение. – 2023. – Т. 10, № 3. – С. 62–81. – DOI: 10.17323/demreview.v10i3.17970.
3. Perin J., Mulick A., Yeung D. [et al.] Global, regional, and national causes of under-5 mortality in 2000–19: an updated systematic analysis with implications for the Sustainable Development Goals // Lancet Child Adolesc. Health. – 2022. – Vol. 6, № 2. – P. 106–115. – DOI: 10.1016/S2352-4642(21)00311-4.
4. Levels and Trends in Child Mortality: Report 2025 / United Nations Inter-agency Group for Child Mortality Estimation (UN IGME). – New York : UNICEF, 2026. – URL: https://data.unicef.org/resources/levels-and-trends-in-child-mortality-2025/ (murojaat sanasi: 03.10.2026).
5. 2022–2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida : O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

milliy bazasi. – 26.04.2022. – № 07/22/216/0343. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-5980203 (murojaat sanasi: 03.10.2026).

6. Гиясов З.А., Махсумхонов Қ.А., Шодиев Ғ.Б. Суд-тиббий экспертиза маълумотлари бўйича гўдаклар ўлими ҳолатларининг айрим хусусиятлари // Tibbiyot asoslari. – 2026. – Jild 1, № 10. – B. 219–224. – URL: https://journals.tnmu.uz/index.php/tas/article/view/4456 (murojaat sanasi: 03.10.2026).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.